

Sport – sog'liq garovi

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirishga va yosh sportchilarni Xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish, jismoniy salohiyati yuqori, ruhiy tetik sportchilarni tayyorlashga katta e'tibor ko'rsatib kelinmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida mavjud barcha Oliy ta'lim muassasasida sport bilan shug'ullanishga barcha shart-sharoitlar mavjud. Ushbu sharoitlardan unumli foydalanish talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida 14 aprel kuni Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakultetida "Sport - sog'liq garovi" shiori ostida Futbo'l musobaqasini tashkil etdik.

Ushbu musobaqada fakultetimiz barcha iqtidorli, sportga ishtiyoqi baland talabalar o'z guruhlarini bilan ishtirok etdi. Musobaqa barcha guruhlar o'rtasida tashkil etilganligi sababli o'yinlar o'ziga hos tarzda shiddatli bo'ldi. Yuqori kayfiyatda bo'lib o'tgan musobaqamizda yuqori salohiyat egalari, fakultetimiz va Institut terma jamoasi a'zolaridan tashkil topgan 407-guruh talabalarini g'alaba qozondi. Bunday tadbirlar, musobaqalar davom etadi fakultet faollaridan yanada tashabbuskorlikni kutib qolamiz.



Fakultet yoshlar yetakchisi Hayitboy Iskandarov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniozov